



CHAG'ONIYON TARIXINING O'RGANILISH VA MANBALARDA YORITILISH TARIXIDAN.

Normurodova Farangiz Xolmurodovna

JDPU Ijtimoiy-gumanitar

fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) 2-bosqich magstranti.

Annotatsiya: Maqolada Chag'oniyon atamasining kelib chiqishi hamda davr nuqtayi nazaridan talafuzda o'zgarishi, geografik joylashuvi, hukumdorlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti hamda taraqqiyoti masalalari yoritilgan.

Аннотация: В статье описывается происхождение термина Чагориян, его изменение в произношении, географическое положение, правители, социально-экономическая, политическая и культурная жизнь и развитие.

Abstract: The article describes the origin of the term Chaganiyan, its change in pronunciation, geographical location, rulers, socio-economic, political and cultural life and development.

Kalit so'zlari: Chag'oniyon, Shimoliy Toxariston, Dehinav, Muhtojylar, Gerodot, Amir Temur, Nafasov, Shumon, Budrachtera, Bobotog'.

Ключевые слова: Чаганьян, Северный Тохаристан, Дехинав, Мухтаджылар, Геродот, Амир Ткмур, Нафасов, Шуман, Будрачтена, Боботог.

Key words: Chaganiyan, Northern Tokharistan, Dehinav, Muhtajylar, Herodotus, Amir Temur, Nafasov, Shuman, Budrachtera, Bobotog.

Bugungi kunda O'zbekiston tarixini ilmiy va xolisona o'rganish, xalqimiz o'tmish merosini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi, shu jumladan mamlakatimizning janubiy hududi bo'lmish Surxon vohasi tarixini o'rganish hamda tahlil qilish ham muhim ahamiyatga egadir. Negaki Surxon vohasi o'zining betakror madaniyati, san'ati, bebaho ijtimoiy turmush tarzi bilan jahon taraqqiyotiga munosib xissa qo'shgan hudud hisoblanadi. Chag'oniyon shahri Surxon vohasi tarixiy taraqqiyotining rivojlanishida o'zining munosib hissasini qo'shgan bo'lib, Chog'aniyon hududi tarixini o'rganish va tahlil qilish voqa tarixi haqidagi ma'lumotlarimizni yanada boyishiga hizmat qiladi.

Bizga malumki, o'rta sarlarda Shimoliy Toxaristonning markaziy hududlaridan biri Chog'oniyon hududi hisoblangan, Chag'oniyon arabchada Sag'oniyon yani Oksning yuqori havzasidagi viloyat bo'lib, maskur viloyatning bosh shahri shu nom bilan atalgan. Chag'oniyondan oqib o'tadigan daryoning nomi Chag'onrud hozirgi Surxondaryoning hamda mahalliy hukmdorlarning nisbati oliylari Chag'onxudot deb yuritilishi ham shu so'z o'zagidan kelib chiqqan.

Chag'oniyon atamasi etimologiyasi xususida turli qarashlar mavjud bo'lib, bazilarida "Chag'oniyon" so'zi Chaxonrud yani Qizil suv so'zidan kelib chiqqanligi takidlansa, boshqa asarlarda "Sakaniyon" so'zidan olingan degan ma'lumotlar uchraydi. Bazi manbalarda esa,



Denovga obihayot berib kelayotgan Surxondaryo qizil suv manosini anglatuvchi Surxi-ob tarzida aks ettirilganini ham ko'rishimiz mumkin.

XIX asrda bir qancha chet el va rus olimlari shaharning o'rnini aniqlashga va etimologiyasini izohlashga harakat qilib ko'rganlar, lekin bu vaqtlarda Sharqiy Buxoroga yani Buxoroning sharqiy qismiga kelish nihoyatda qiyin bo'lganligi uchun qidiruv ishlari asosan, o'rta asrlarda arab tilida yozilgan sayoxatnomalar va geografik xaritalar ma'lumotlarini solishtirish asosidagina olib borilgan.

Shaharning joylashgan o'rnini masalasida ko'pgina tarixchilar o'z qarashlarini bildirgan, jumladan: V.V.Bartold maskur joyning markazi hozirgi Denov (Dehi Nav-"Yangi Qishloq" so'zidan) o'rnida deb takidlaydi. Le Srenj esa bu fikrga mutanosib ravishda shaharni birmuncha shimolda joylashgan Sariosiyo o'rnida bo'lgan, deb ko'rsatadilar. V.V Bartold fikrini quvvatlash tariqasida tarixchi Mahmud ibn Vali (XVII asr)ning "Hududi Chag'oniyonki imro'z ba Dehinav mashhur ast", - so'zlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

P.G Pugachenkova "Xolchayon" nomli asarida L.S. Bretanski va S.B. Pevznerlarning Denov yaqinida "Shag'oniyon" deb nomlangan yirik shahar o'rnini topganligi haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tib, bu hududni Sog'oniyon-Chag'oniyon nomi bilan izohlagan.¹⁹

Arab tilida "chim" harfining yo'qligi bois ular shaharni Sag'oniyon deb yani so'z boshidagi birinchi harf arabcha "sod" harfi bilan almashtirgan holda talafuz qilishgan, forslar va turklar esa Chag'oniyon deb atashgan. Chag'oniyon nomining etimologiyasi haqida ham turli fikrlar va qarashlar mavjud bo'lib, jumladan: N.A.Maev uni Saganian yani Sakanian deb atagan.²⁰ I.Markvart esa uni mo'g'ulcha sagan yani oq so'zidan olingan deb hisoblaydi. I.Markvartning fikrini V.V.Bartold noto'g'ri deb hisoblasada, bu xususda uning o'zi biron bir fikr bildirmaganligini ko'rishimiz mumkin.²¹

E.V.Rtveladze va A.Sagdullayevlar Chag'oniyon nomining asosini qadimgi "chag'on" so'zi tashkil qilib, forscha -on qo'shimchasi keyinroq kelib qo'shilgan. "Chag'oni" so'zi yaxshi o'rganilmagan baqtriya tilining biron bir lahjasi bo'lishi mumkin deb takidlashadi.²²

Chag'oniyon etimologiyasi xususida, G.A. Pugachenkovaning fikri diqqatga sazovor bo'lib, uning takidlashicha bu so'zning o'zagi bo'lgan "sag" qadimgi saklarga borib taqaladi. Ular mil.avv II-I asrlarda Baqtriya va undan janubga siljigan yirik ko'chmanchi qabilalar ittifoqidan biri hisoblangan. Saklar nomi Sakiston hozirgi Seyiston nomida aks etgan bo'lib, e'tiborli tomoni Shopir I davridan milodiy III asrdan boshlab shahzodalarga "sag'onshoh" unvoni berilgan.²³ Balki mil. Avv II asrda siljib borish natijasida saklarning biror bir qabilaviy guruhi Surxon vodiysida qolib, asta sekinlik bilan o'troqlashgandir. Ularning nomi viloyatning, daryoning atalishiga, shuningdek mahalliy hukumdorlar unvoniga aylanishiga ham asos bo'lib xizmat qilgan.

¹⁹С.Турсунов, Т.Турдиев. Денов. Фан, Тошкент-2009, 49-50 б.

²⁰ Материалы для статистики Туркестанского края // Ежегодник. Вып. 5. Под ред. Н.А.Маева.СПб,1879.

²¹ Бартольд В.В. Сочинения. Москва. Том I,1963; том III, 1965; том IV, 1967.

²² Ртвеладзе Э.В.,Сагдуллаев А. Памятники минувших веков.Ташкент,1986.

²³ Пугаченкова Г. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Ташкент,1966.



T.Nafasov esa atama nomining asosi "chog'on" bo'lib, Surxondaryo o'rta asrlarda Chog'onrud deb atalgan. *-i* hamda *-yon* affikslari eroniy tillarga xos qo'shimcha, *-i* affiksi o'rin, joyga mansublikni bildiradi, *-yon* affiksi esa kishilar jamoasi, guruhini ifodalash uchun hizmat qilgan bo'lib, *chak* yani sak qo'shimchasi sak etnonimining tovush variant, *-on* affiksi esa ko'plikni bildiradi deb takidlaydi. Chog'on-sakon "saklar" yani Chog'oniyon saklar shahri shaklida viloyatga nisbatan ishlatilgan.²⁴

Sagan so'zining eng qadimiy ko'rinishi saga bolib, sak so'zi saganing tovush varianti hisoblanadi. Pliynining malumotlariga ko'ra, Yaksartning narigi qirg'ogida sikk qabilalari yashagan bo'lib, forslar ularni hammasini Saglar yani saklar deb atashgan. Ammian Marsellian Yaksartning o'rta va quyi oqimida saklarning bir qancha shaharlari, shu jumladan Sag shahri bo'lganligini aytib o'tadi. Saklarning sag deb atalishiga o'z davrida V. Grigorev ham etibor berib o'tgan va bu xususda o'z qarashlarini ifoda etgan.

G.A Pugachenkova va T. Nafasoflarning fikirlari I. Makrvart fikriga to'g'ri keladi, chunki VI asr Vizantiya tarixchisi Prokofiy Kesariskiy eftaliylarni oq xunlar ekanligi, eftaliylarni esa xun qabilarining biri ekanligini, ularni boshqa xunlardan terisining rangi hamda boshqa jihatlari bilan farqlanishini takidlaydi.²⁵

Yuqoridagi fikirlardan xulosi qilib aytadigan bo'lsak, oq xunlar va saklar aynan bir xalq bo'lgan, bu xalqlar o'zlarini sag deb atasalar, o'zga xalqlar esa ularni sak yoki oq xunlar deb ataganlar. Sag yani oq xunlar Surxondaryoning yuqori va o'rta oqimida o'rnashganlar va bu hududlarda o'z viloyatlariga asos solganlar, viloyat esa ularning nomi bilan Sag'oniyon deb atalgan. T.Nafasov takidlaganidek, toponimdagi *-on* ko'plik qo'shimchasi yani sagon-sakon hamda *-yon* toponim yasovchi qo'shimcha, qadimgi urug' hamda qabila nomi bilan aloqador joylarga nisbatan qo'llanilgan, Sag'oniyon esa saklar viloyati deb yuritilib, keyinchalik o'zgarishlar natijasida Chag'oniyon deb atala boshlaganligini takidlab o'tishimiz mumkin.

Chog'oniyonning qadimgi markazi hozirgi Qizilsuv yani Sangardakning Surxonga quyiladigan chap sohilida xarobaga aylangan Budrachtepa o'rnida bo'lgan, keyinchalik esa Denovga ko'chgan, voha va uning markazi Chog'oniyon deb yuritigan, arab manbalarida esa Sag'oniyon deb talaffuz qilingan bo'lib, bu arab tilida *-Ch* harfining yo'qligi sababli ro'y bergan.

"Sakoniyon"- Movorounnahrning 4 va 5 chi iqlimiga mansub hudud bo'lib, Termizdan shimolda, Kesh va Samarqanddan janubda joylashgan bo'lib, Sakonyonni bazan Chag'oniyon ham deb atashadi. Sakoniyonda aholi yashaydigan joylarda qishloqlar ko'pchilikni tashkil qiladi, hududi esa keng markaz sifatida tan olingan. Sakonyon saklar, massagetlar, sikk qabilalari yashagan tarixiy hudud hisoblanadi. Gerodotning "Tarix" asarida Sag'oniyon to'g'risida aniq ma'lumotlar berib o'tilgan. Jumladan: Chog'oniyon amirligi sarhadlari keng bo'lib, uning hududlariga g'arbdan Boysunu Darband, shimoldan Xisoru Dushanbe, janubdan Jarqo'rg'ondan yuqori tumanlar, sharqdan Bobotog' etaklarigacha cho'zilgan hududlar kirganligi haqidagi ma'lumotlar aytib o'tilgan. Voha Chag'oniyon nomi bilan

²⁴Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент,1998

²⁵С.Турсунов, Т.Турдиев. Денов. Фан, Тошкент-2009, 51 б.



yuritilgan bo'lib, Surxon daryosi Chag'onrud deyilgan, Chag'onyon hamda Chag'onrud sak qabilasi bilan hamohanglik kasb etib daryo nomi Sakonrud-Shakonrudning talafuzdagi o'zgarishi natijasi hisonlanadi. Bu atama Chag'oniyonga ham taluqli bo'lib, bu nom ayrimlar takidlaganidek Chag'ona so'zining qizil yoki musiqa asbobiga hech qanday aloqasi yuq.²⁶

Xitoy manbalarida, jumladan Syuan Szyan, Xoy-Chao asarlarida (VII-VIII asrlarda) shimoliy-g'arbiy Toxariston yerlarida Termiz va Chog'onyon mulklari mavjudligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Chog'onyon Chog'onruh yani Qizildaryo daryosining yuqori oqimidagi yerlarni Hisor hamda Bobotog' oldi maydonlarini o'z ichiga olgan hudud hisoblangan. Mulkchilikning markaziy shahri Budrachtepa o'rnida joylashgan.²⁷

Islomdan oldin Chag'oniyonda hukm surgan turkiy hukmdorlar sulolasi chag'on-xudot²⁸ va turkiy shad unvonlariga ega bo'lganlar va shu unvonlar bilan atalgan²⁹. VII asrda bu hududlarga sayohat qilgan xitoylik Syuan Szyan Chi-go-yen-na yani Chag'oniyon viloyatining podishosi Xu-su nomli turkiy qabiladan kelib chiqqanligini hamda Su-man (Shuman) shahrining hukmdori ham unga bo'ysunganligini takidlab o'tgan. Bu hukmdorlarning barchasi Toxariston yabg'usiga bo'ysunganlar.

VIII asr oxirgi choragida Chog'oniyon Toxaristonning yirik va qudratli mulklaridan biri bo'lib, unung avloddan avlodga o'tib kelgan hudumdor sulolasi Toxariston hukmdori hisoblangan. Chog'oniyon hududida ko'plab qishloqlar va yirik shaharlar bo'lib ular o'z tanga-pul muomilasiga ega bo'lgan. Bu viloyat hukmdorlari boshqa davlatlar bilan doimiy ravishda diplomatik, diniy va sulolaviy aloqalar o'rnatgan. Masalan, Afrosiyob saroyidagi devoriy yozuvlarda, VII arsning ikkinchi yarmida Samarqand hukmdori Varxuman saroyida Chag'onyon hukmdori nomidan elchi borganligi qayd etilgan.³⁰

Chog'onyon shahri haqida arab-fosr yozma manbalarida ham ma'lumotlar berib o'tilgan bo'lsada ular yetarli darajada batafsil yoritilmagan. Chag'onyon milodning X-XI asrlarida O'rta Osiyoning eng yirik shaharlaridan biri bo'lib, aholisining soni hamda boyligi jihatidan Termizdan keyin tursada, ammo maydoni jihatidan undan katta bo'lgan, shaharda chiroyli timlar va pishiq g'ishtdan qurilgan masjid qad ko'tarib turgan. Aholisi etiqoqliligi hamda mehmondo'stligi bilan ajralib turgan. Chog'onyon o'zining otlari, jun matodan tikilgan kiyimlari, gilamlari va bo'yog'i bilan mashhur bo'lgan.³¹

Chag'oniyon hududi dastlab Ahamoniylar davlati tarkibida bo'lgan, keyinchalik bu hududlar boshqa sulola vakillari tomonidan egallanishi natijasida nabati bilan Baqtriya, Yunon-Baqtriya, Kushon imperiyasi, Sosoniylar, Eftaliylar tarkibida bo'lib, hukumron sulola vakillari tomonidan boshqarilgan. VII asrning birinchi yarmiga kelib hukumron sulola almashinuvi jarayonida, bu hududlarda hukumronlik qilib kelgan eftaliylar sulolasi o'rniga turkiy sulola vakillari hokimiyatga kelgan. Ammo chog'onxudotlarning eski sulolasi o'z mavqeyini saqlab qolgan holda ular sosoniylarga emas, 589 yilda Toxaristonga kirib kelgan

²⁶С.Турсунов, Т.Турдиев. Денов. Фан, Тошкент-2009, 50-51 б.

²⁷С.Турсунов, Э.Кобилов, Т.Пардаев, Б.Муртозоев. Сурхондаре тарих кузгусида. Шарк, Тошкент-2001, 39-40 б.

²⁸Ртвеладзе Э.В. Легенды об основании среднеазиатских городов и археологическая действительность//Культура юга Узбекистана в древности и средневековье. Ташкент.1987.С.47-56

²⁹Ат-Табари. История ат-Табари. Перевод В.И.Беляева.Т.,1987.

³⁰С.Турсунов, А.Тухтаев. Жарқургон. Фан, Тошкент-2008, 23-б.

³¹С.Турсунов, Т.Турдиев. Денов. Фан, Тошкент-2009, 37 б.



turkiylarga moslashib olgan degan taxminlar bor, negaki turklar Toxaristonga bir necha marta bostirib kirganlar. Shimoliy Toxaristonda Turk xoqonligiga bo'ysunuvchi turkiy sulolalar VIII asr o'rtalariga kelib butunlay tugatildi.

Arablar bosqini natijasida VIII asr o'rtalariga kelib Toxaristondagi barcha mahalliy sulolalar tugatiladi. Manbalarda ayni shu davrdan IX asr boshlarigacha bu erlarda qaysi sulola hukmronlik qilganligi to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi. Ammo IX asrga kelib Xalifalikga bo'ysunuvchi Banicho'riylar tilga olinadi.

821-yilda tohiriylar davlati vujudga kelib, arablar qo'l ostida bo'lgan Chog'oniyon hududlarini boshqarish tohiriylar sulolasiga o'tadi. 873-yilda tohiriylar sulolasining safforiylar tomonidan ag'darilishi va keyinchalik Movarounnahr yerlarida Somoniylar hukmronligining o'rnatilishi Termiz va Chag'oniyon hududlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmagan. Bu davrda Chag'oniyonda muhtojiylar sulolasi hukmronlik qilgan bo'lib, Ibn Havqal takidlaganidek (al-Muhtoj sulolasi) Chag'onxudotlar orasidanmi yoki qandaydir arab amirlaridan kelib chiqqanligi to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum emas³². Muhtojiylar X-XI asrlarda Chag'oniyon viloyatida Somoniylar va Qoraxoniylar oliy hukmronligi ostidagi hukmdorlar sulolasi vakillari bo'lib, islomga qadar bo'lgan davrda ularning kelib chiqishi noma'lum bo'lsada, ular ham turkiy sulola vakillaridan bo'lgan degan fikrga asos bor. Bu sulolaning vakillaridan biri bo'lgan, Muzaffarning ikkinchi ismi yoki unvoni kiyo yoki kayo bo'lib, bu so'zning kelib chiqishi jihatidan o'rta fors tilidagi *kija*—"xo'jayin", "hokim" so'zi bilan bog'liq deb tahmin qilinadi³³. Ammo shuni ham takidlash kerakki X-XI asr boshlarida *Qja/Qija* (qiya) unvonini Beshbaliq uyg'urlari ham ishlatganlar³⁴. Sh. Kamoliddinov takidlashicha, bu unvonning kelib chiqishini qadimgi turkiy *Qja/Qija*—"qoya" so'zi bilan bog'liq bo'lishi mumkin³⁵. Kichik Osiyo turklari orasida shu ma'noni bildiruvchi *kaya* ismi hozir ham keng tarqalgan³⁶.

XI asrning birinchi yarmiga kelib esa Chag'oniyon hukmdorlari G'aznaviylar oliy hokimiyatini tan olishga majbur bo'lgan. Termiz uzoq vaqt Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar o'rtasida kurash maydoniga aylangan bo'lsa. Chag'oniyonda esa vaziyat o'zgacha bo'lgan. Qoraxoniylar va G'aznaviylar o'rtasidagi nizolardan juda ustalik bilan foydalangan Chag'oniyon amirlari jumladan: Muzaffar Qiya va Ahmad ibn Muhammad rasman Qoraxoniylar hukmronligini tan olib amalda ulardan mustaqil ravishda ish yuritganlar.³⁷

Chag'oniyon davlatining siyosiy hayoti haqida ma'lumotlarni o'sha davrda zarb etilgan va arxeologlar tomonidan topilgan tangalar orqali ham bilish mumkin. Mavjud tangalarda ma'lumotlarda anglashiladiki 1025-1027 yillarda Chag'oniyon Qoraxoniylar davlati tarkibida bo'lgan, 1027-1039 yillarda esa mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan, 1038-1039 yillar

³² Ибн Ҳавқалл-Китоб сурат ал-Ард, Мовароуннаҳр. Ш.С.Камоллидинов тарж."Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси". Тошкент-2011.

³³ Ртвеладзе Э.В К истрии Саганияна первой четверти XI в. по нумизматическим данным// Э.В,вкп.24. Л.,1988. С.48-55

³⁴ Тугашева Л.Ю. Ярлыки уйгурских князей из рукописного собрания ЛО ИВ АН СССР//ТС,1971.М.,1972.С.244-260

³⁵ Древнетюрский словарь. Л:Наука ЛО, 1969.

³⁶ Ибн Ҳавқалл-Китоб сурат ал-Ард, Мовароуннаҳр. Ш.С.Камоллидинов тарж. "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси". Тошкент-2011.

³⁷С.Турсунов, Э.Кобилов, Т.Пардаев, Б.Муртозоев. Сурхондаре тарих кузгусида. Шарк, Тошкент-2001, 43 б.



hamda 1042-1043 yillarda esa Chog'onyon o'z musttaqilligidan mahrum bo'lib, bu hududni qoraxoniylar hukumdori Bo'ri Tegin idora qilgan.³⁸

XII asrda chag'oniyon goh Samarqand hukmdorlari mulki qamrovida, goh Bomiya g'uriylari davlatining bir qismi sifatida tilga olinadi. 1206-yilga kelib xorazmshoh Muhammad qoraxitoylar, qoraxoniylar bilan ittifoqda Termizni egallaydi. Bu o'lkalar Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgach Termizda dinor, Chag'oniyonda esa dirham zarb etilgan.

1220-yilning kuzida mo'g'ul qo'shinlari tomonidan Termiz va Chag'oniyon hududlarini egallash uchun yurush boshlab bu hududlar egallanib uni boshqarish Chig'atoyning nevarasi Yosun Tuva ixtiyoriga beriladi. Chog'onyon mug'ullarning bosqinchilik yurishlari va ayovsiz talanishi natijasida inqirozga uchrab shahar vayron bo'lib, aholisi esa turli joylarga yashash uchun ketishga majbur bo'ladi. Chag'oniyon aholisining bir qismi Qizilsuv daryosidan 6 km janubga borib joylashadi va bu yerlarni Dehinav yani yangi qishloq deb atashadi.

1370-1405 yillarda esa Chog'onyon hududi Amir Temur tomonidan tuzulgan Temuriylar davlati tarkibida qo'shib olinib, bu hududlarda madaniy hayot qayta tiklanib dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanadi. Amir Temur vafotidan so'ng Chog'onyon Xalil Sultonga, 1409 yilda Shohrux Mirzo boshqaruvi ostiga o'tadi. 1504-1505 yillardavomida Shayboniylar davlati ixtiyorida, 1510-yilda esa ma'lum muddat Bobur Mirzo ixtiyorida, 1512 yildan 1747-yillar davomida esa Ubaydullo Sulton va Jonibek Sulton avlodlari ixtiyorida bo'ladi. XVI asr oxirida Chag'oniyonning butunlay inqirozga uchrashi natijasida madaniy hayot Dehinavda shakillangan³⁹ va keyinchalik bu hududlar shevaga moslashib Denov nomi bilan atala boshlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'rta asrlarda Shimoliy Toxaristonning markaziy shaharlaridan biri bo'lmish Chag'oniyon hududi o'zining geografik joylashuvi, siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda madaniy aloqalari, jihatidan Surxon vohasi tarixida va taraqqiyotida o'zining munosib hissasini qo'shgan hudud hisoblanib, Chagoniyon tarixini o'rganish va tahlil qilish o'rta asrlar Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqidagi ma'lumotlarimizni yanada boyishiga xizmat qiladi. Maqolaning mazmun mohiyatini ochib berishda ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan bo'lib, ushbu maqola sizga Chag'oniyon tarixi yuzasidan bazi xulosalar chiqarishingizga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ат-Табари. История ат-Табари. Перевод В.И.Беляева.Т.,1987.
- 2.Бартольд В.В. Сочинения. Москва. Том I,1963; том III, 1965; том IV, 1967. Древнетюрский словарь. Л:Наука ЛО, 1969.
- 3.Ибн Хавқалл-Китоб сурат ал-Ард, Мовароуннахр. Ш.С.Камоллидинов тарж."Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси". Тошкент-2011.

³⁸С.Турсунов, А.Тухтаев. Жарқургон. Фан, Тошкент-2008, 24 б.

³⁹С.Турсунов, Т.Турдиев. Денов. Фан, Тошкент-2009, 77-79 б.



- 4.Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент,1998
Материалы для статистики Туркестанского края // Ежегодник. Вып. 5. Под ред. Н.А.Маева.СПб,1879.
- 5.Орханской экспедиции, вып.6.СПБ.1903; Watters 1904- Watters T/ On Yuan chwaugs travels in India 9629-645 A.K), in 2 volemes, London:RAS,1904
- 6.Пугаченкова Г. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Ташкент,1966.
- 7.Ртвеладзе Э.В К истории Саганияна первой четверти XI в. по нумизматическим данным// Э.В,вкп.24. Л.,1988. С.
- 8.Ртвеладзе Э.В.,Сагдуллаев А. Памятники минувших веков.Ташкент,1986.
- 9.Ртвеладзе Э.В. Легенды об основании среднеазиатских городов и археологическая действительность//Культура юга Узбекистана в древности и средневековье. Ташкент.1987.С.
10. С.Турсунов, Э.Кобилов, Т.Пардаев, Б.Муртозоев. Сурхондаре тарих кузгусида. Шарк, Тошкент-2001.
- 11.С.Турсунов, А.Тухтаев. Жаркургон. Фан, Тошкент-2008.
12. С.Турсунов, Т.Турдиев. Денов. Фан, Тошкент-2009.
- 14.Тугашева Л.Ю. Ярлыки уйгурских князей из рукописного собрания ЛО ИВ АН СССР//ТС,1971.М.,1972.